



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi*  
\_\_\_\_\_ *ning*

*20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 6 – sinf*  
*adabiyot fanidan II chorak uchun*

***DARS***  
***ISHLANMALAR***

**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘IBDO‘ \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 6-sinf adabiyot fani II chorak taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>I chorak</b>				
1.	Xalq qo‘shiqlari va ularning turlari	1		
2.	Xalq qo‘shiqlari bo‘yicha loyiha taqdimoti	1		
3.	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy ruboiylarini o‘qishga tayyorlanamiz	1		
4.	Alisher Navoiy ruboiylari	1		
5.	Qofiya va radif. Alisher Navoiy hikmatlari	1		
6.	Abay: “Yoshlikdan bilim izlab”. Avaz O‘tar: “Har tilni biluv emdi”. She’rlarni solishtirib tahlil qilish	1		
7.	Abay va Avaz O‘tar she’rlarini solishtirish	1		
8.	<b>BSB-2. Asar tahlili (50 ball)</b>	1		
9.	Lengston Hyuz: «Rahmat sizga, xonim» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
10.	Lengston Hyuz: «Rahmat sizga, xonim» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
11.	Lengston Hyuz: «Rahmat sizga, xonim» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
12.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va ona tili	1		
13.	<b>CHSB-2 (40 ball)</b>	1		
14.	Takrorlash. Xatolar ustida ishlash. Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## Mavzu Xalq qo‘shiqlari va ularning turlari

### Darsning maqsadi:

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

### O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

#### Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma’lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

#### O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

#### Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

### Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

### XALQ OG‘ZAKI IJODI

Xalq og‘zaki ijodi namunalari – xalq ertaklari, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar dastlab og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan va avloddan avlodga o‘tib, bugunga qadar yetib kelgan. Ular biror-bir yagona shoir yoki yozuvchi tomonidan emas, balki xalq tomonidan yaratilgani uchun ham “xalq og‘zaki ijodi” deb ataladi. “Xalq og‘zaki ijodi” atamasi o‘rnida “folklor” (inglizcha “folk” – “xalq”, “lore” – “donolik”) so‘zini ham qo‘llash mumkin. Xalq qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi shakllaridan biridir.

Ayrim qo‘shiqlar kattalar tomonidan kattalar davrasida ijro etilgan bo‘lsa, ayrimlari bolalar uchun aytilgan (masalan, “alla”), ayrimlari esa bolalar tomonidan kuylangan. Misol uchun: qo‘shig‘ini bolalar kechki payt o‘rtoqlarini o‘yinga chaqirish maqsadida aytishgan.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarini turli xil guruhlarga ajratish mumkin.

1. Mehnat qo‘shiqlari– biron ishni bajarish paytida ijro etiladigan qo‘shiqlar. Misol uchun: O‘rog‘im olmos,

O‘rishdan qolmas.

Sira ham tolmas,

O‘rmasam bo‘lmas.

Ushbu qo‘shiq o‘rim paytida iro etilgan.

Boshqa bir misol:

Ayri-ayri tuyoqqa, mayda-yo mayda,

Ayri nag‘al yarashar, mayda-yo mayda.

Jilviragan quloqqa, mayda-yo mayda,

Tilla sirg‘a yarashar, mayda-yo mayda.

Ushbu qo‘shiq xirmonni yanchish paytida ijro etilgan.

2. Mavsum-marosim qo‘shiqlari– turli mavsumlarda va bayramlarda (masalan, bahor yoki kuz kelganda), marosimlarda (masalan, to‘ylarda), o‘yinlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar.

Misol uchun:

Suz xotin, suzma xotin,

Ko‘lankasi maydon xotin,

Yomg‘ir yog‘dir, ho‘l bo‘lsin,

Yer-u jahon ko‘l bo‘lsin.

Ushbu qo‘shiq qurg‘oqchilik paytida yomg‘ir chaqirish uchun o‘tkazilgan marosimlarda ijro etilgan.

Boshqa bir misol:

Ramazon aytib keldik eshigingizga,

Qo‘chqordek o‘g‘il bersin beshigingizga.

O‘choqda kul, karmonda pul,

Chiqara qoling ming so‘m pul.

Ushbu qo‘shiq Ramazon oyida asosan bolalar tomonidan aytiladi.

Yana bir misol:

Hazorali, hazorali,

Oftobim, anbarim, xush keldingiz,

Jonim, oltin parim, xush keldingiz,

Hazorali, hazorali.

Davlat boshingizda bo‘lsin, xush keldingiz,

Himmat qo‘lingizda bo‘lsin, xush keldingiz.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Bolaligingizda qanday allalar eshitgansiz? Nima uchun allani “sehrli qo‘shiq”lar qatoriga kiritishimiz mumkin?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Xalq qo‘shiqlari bo‘yicha loyiha taqdimoti**

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojida o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e‘tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e‘zozlash, orasta kiyinish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

oddiy kun tartibini tuza olish, unga amal qilish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

\* \* \*

Havodagi hulkarman,  
Badavlatga navkarman.  
Uch kunlikcha ishim bor,  
To‘rt kunlikda bekorman.

Maymanoqda makoni,  
Tagi timda do‘koni,

O‘roq o‘rgani ketdi  
Qizilsoyning dehqoni.

Qiyo-qiyoyuringlar,  
Qiyilib qolsin poyasi.  
To‘qrab-to‘qrab yuringlar,  
To‘qson qop chiqsin donasi.

– Oq terakmi, ko‘k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Gul terdik dasta-dasta,  
Bir-biriga payvasta.  
Bizga kerak odobli,  
A‘lochi qiz Shohista!

– Oq terakmi, ko‘k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Oy kerag-u, oy kerak,  
To‘lib oqqan soy kerak.  
Bizga “Maqtoov qog‘ozi”  
Olgan Hasanboy kerak!

– Oq terakmi, ko‘k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Maktab oldi bog‘ ko‘cha,  
Bir yoni gulbog‘ ko‘cha.  
Bizga kerak shaxmatda  
Nom qozongan Xadicha!

– Oq terakmi, ko‘k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– To‘p o‘ynar Ra‘no, Tolib,  
Biri biridan g‘olib.  
Bizga kerak chopishda  
Hech tengi yo‘q Mutallib.

Omonyor o‘ynasangchi-yey, omonyor,  
Belingni bog‘lasangchi-yey, omonyor.  
Davradagi raqqosaning, omonyor,  
Yuraklari jo‘shibdi-yey, omonyor.  
Hay dod-ey, voy dod-ey, omonyor,  
Ochilib o‘ynasangchi-yey, omonyor.  
Hay dod-ey, voy dod-ey, omonyor,  
Sochilib o‘ynasangchi-yey, omonyor.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Guruhlarga bo‘lining. Yoshi kattalardan xalq qo‘shiqlari haqida ma‘lumotlar yig‘ing va xalq qo‘shiqlari ijrosini audioshaklda yozib keling. Yig‘ilgan materiallarni sinfda muhokama qiling.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**31 listdan iborat adabiyot fanidan 6-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**